

MUTRIB SHE'RIYATI TILIDA "QO'L" LEKSEMASINING IFODASI

Allaberganova Adolat Atabek qizi

UrDu Filologiya fakulteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada tilshunoslikda lingvopoetik tadqiqning ahamiyati, badiiy asar tili va Mutrib ijodining o'ziga xos tomonlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, adib ijodini lingvopoetik jihatdan o'rganish ijodkor she'riyatida so'zlarning tarixiylik jihatdan qo'llanishiga e'tibor qaratilgan holda izohlangan.

**Kalit so'zlar:** *Lirika, lisoniy tahlil, leksika, morfologik, qo'l, ilik, al, sheva*

Til lug'at boyligining muayyan qismi hududiy chegaralangan bo'lib, ular har bir hududga oid so'zdir. Shevalar ma'lum bir hudud aholisi tomonidan qo'llanilib, shu aholining tilini, madaniyati va shu joyga mansub sifatni namoyon qiladi. Bu so'zlar tilshunoslikda shevaga xos so'zlar yoki dialektal so'zlar nomi bilan qo'llanadi. Dialektal so'zlarni badiiy adabiyotda ham uchratamiz, chunki har bir muallif o'z asariga mahalliy ruhni bag'ishlash uchun shevaga oid so'zdan foydalanadi. "Dialektal so'zlarning muayyan territoriyadan, ya'ni sheva doirasidan tashqariga chiqish imkoniyatlarining asosiysi ularning badiiy adabiyot tilida qo'llanishidir. Badiiy adabiyot tilida qo'llangan dialektal so'zlar esa dialektizmlar deb yuritiladi. Dialektizmlar badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi"<sup>1</sup>. Biz dialektizmlarni badiiy nutqda turli formalarda ishtirok etishiga ko'p bora guvoh bo'lganmiz. Badiiy adabiyotda qo'llangan ma'lum bir hududga oid so'zlar mahalliy ruh va kechinmani oson va badiiy ifodalay oladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlari Xorazmda, keskin mafkuraviy kurashlar zaminida va ikki madaniy-adabiy kurash jabhasida yashagan, shoir, jurnalist, maqomchi bastakor, o'zbek demokratik adabiyotining so'nggi vakili, shuningdek, milliy uyg'onish adabiyotining ham ilk boshlovchilaridan biri Muhammad Hasan el orasida Mutrib Xonaxarobiy nomi bilan mashhur bo'lgan.

Bu jihatdan uning ijodiy faoliyati H.Niyoziy va S.Ayniy, A.Avloniy va So'fizoda, Faqiriy va Bayoniy, shuningdek, M.Ordubodiy va H.Jovid, A.Shirvonzoda va S.Sayfullin singari o'tmish adabiyot bilan yangi tipdagi adabiyotni tutashtirgan adiblar faoliyatiga hamohang ekanligi va 1860-yillarning birinchi yarmida Xiva shahrining Eski Bolhovuz bo'yida "Mahramlar" ko'chasi yaqinida tug'ilganligi dotsent M. Pirnazarov tadqiqotlarida aytib o'tilgan.<sup>2</sup> Laffasiy esa o'z tazkirasida Muhammad Hasan Mutrib 1853-yili Xiva shahrining tashqari qal'asida, ya'ni Qalli Oqsoqol qavmida tug'ilgan deb ma'lumot beradi.<sup>3</sup> Uning otasi Hoji Tabib XIX asr

<sup>1</sup> X.Абдурахмонов, Н.Махмудов. Сўз эстетикаси. — Тошкент, Фан, 1981. —Б.24

<sup>2</sup> Pirnazarov Matnazar. Mutrib Xonaxarobiy. Risola-majmua.—Toshkent, 2001. —B.1.

<sup>3</sup> Laffasiy. № 9494.138.

ikkinchi yarmida Xivada yashagan va tibbiyot ilmidan xabardor inson bo'lgan. Hoji Tabib asli Eronlik bo'lib, tabiblik sababli Xivaga kelib qolgan. Ijodkor boshlang'ich ma'lumotni otasining tarbiyasida olib, keyinchalik madrasada tahsil ko'radi. Otasi vafotidan keyin madrasa tahsilini to'xtatadi va mustaqil ilm bilan shug'ullanadi. Mutrib Xonaxarobiy Xorazm Xiva shevasi vakili hisoblanadi. Xiva shevasi so'z boyligining asosiy qismini turkiy so'zlar tashkil etishi, bu jihatdan boshqa shevalar bilan umumiylikka egaligi, shuningdek, hudud so'z boyligi tarkibida arab, fors-tojik, yevropa tillariga mansub so'zlar mavjud ekanligi O.Madrahimov ishlarida qayd qilingan. Biz ham shoir she'rlari leksikasiga diqqat qaratish jarayonida bunga guvoh bo'ldik. Umuman, she'rda qo'llangan shevaga oid so'zlar qadimgi va eski turkiy til manbalarida o'z ifodasini topgan. Adabiy tilda mavjud bo'lmagan, boshqa turkiy til va qadimgi turkiy tilda mavjud so'zlarni Xiva shevasida uchratishimiz mumkin. Masalan, *et-go'sht*, *jil-xamir*, *qarinja-chumoli* kabi. Shoir she'rlarini kuzatish orqali ham yuqoridagi kabi misollarni ko'rib o'tamiz:

Masalan, *Alimdin ixtiyorim ketganini,  
Ko'rib lutf ayladi yor vafodor.*

Ushbu baytda qo'llangan *alimdin* so'zi *qo'limdan* so'zining Xorazmcha (Xiva, Xonqa, Urganch tumani) shevasi hisoblanadi. Xususan, *al* so'zi qadimgi turkiy manbalarda ham qo'llangan. Shu jihatdan ushbu sheva variantini sof umumturkiy so'z deya olamiz. Bu so'zning qo'llanishini shoirning boshqa she'rlarida ham ko'ramiz:

*Shavqing olib oromimi ketdi alimdin ixtiyor,  
Chashmimga zebo surating bo'lg'ach namoyon telmurub.*

Yoki:

*Mutrib kabi toki tarab jomin alinqdin istasam,*

*Kim fitna aylar ayon mujgonlaring, mujgonlaring.* Aynan yuqoridagi baytlarda o'zbek adabiy tilida mavjud *qo'l* so'zining shevaga oid *al* tarzida qo'llanganiga guvoh bo'lamiz. Shoirning "*Nedin muncha mango ko'pdur azobing*" deb boshlanuvchi g'azalida ham insonning barmoq uchlaridan yelkasigacha bo'lgan qismi, tana a'zosi shevaga xos *al* tarzida ifodalanadi:

*Qachon ichsam alinqdin bir qadah may,*

*Ziyod aylar jununimni sharobing.* Shoir yorga qarata qachonki qo'lingdan bir qadah may ichsam telbalik mayim ziyoda bo'lar deydi. Sevvida telbaligini go'yoki aniq, ravshan ifoda etish un o'z shevasiga xos so'zdan foydalanadi. Aynan oshiqning jununsifatligi shevaga xos so'zni qo'llash orqali yana-da avjiga chiqadi. Bu so'z shoir she'rlarida adabiy tilga xos *qo'l*, qadimgi va eski turkiy tilga xos *ilik* tarzida ham qo'llangan:

*Guliston ichra ko'rgach orazi zebosini, vah kim,  
Qochib xush, ketib aql, qo'limda ixtiyorim yo'q.(DM)*

Yoki:



# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



*Fikr ila sham'i zihingni Mutribingdek ko'ngluma,  
Naqsh etarga suratingni doim ilqimda qalam.*(DM)

Demak, Muhammad Hasan Mutrib she'riyati tilida *qo'l* leksemasining har bir davrga xos *al, ilik, qo'l* shakllari o'z ifodasini topgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M. Xonaxarobiy "Devoni Mutrib Xonaxarob". – Xiva., 1909. (Muhammad Sharif bin Yoqub Xarrot tomonidan ko'chirilgan).
2. H.Dadaboyev, Z.Hamidov, Z.Xolmonova. O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi. –Toshkent, Fan, 2007.
3. X.Abdurahmonov, N.Mahmudov. So'z estetikasi. –Toshkent, Fan, 1981

